

NOSIRUDDIN RABG'UZIYNING "QISASI RABG'UZIY" ASARI TARIXI VA ASARNING BOSHLANISH QISMI

Mirzayev Soibjon Solixdjanovich

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
yo'nalishi I kurs magistranti*

Annotatsiya: *Muqaddas Qur'oni Karimdagi anbiyolar qissalari bayoni, turkiy tilda yozilgan payg'ambarlar haqidagi ilk qissa, muallif haqida, "Qisasi rabg'uziy" asarining yozilishi sababi va boshlanishi tarixi.*

Tayanch so'zlar: *Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy, Qisasi rabg'uziy, Qur'oni Karim, qissaxonlik tarixi, payg'ambarlar va solihlar insonlar qissasi, hamd, na't, sura, oyat.*

Abstract: *Description of the stories of the prophets in the Holy Qur'an, the first story about the prophets written in Turkish, about the author, the reason for the writing of the work "Qisasi Rabghuzi" and the history of its beginning.*

Keywords: *Nasiruddin Burkhanuddin Rabguzi, Qisasi Rabguzi, Holy Qur'an, history of storytelling, stories of prophets and righteous people, praise, na't, sura, verse.*

Аннотация: *Описание рассказов о пророках в Священном Коране, первый рассказ о пророках, написанный на турецком языке, об авторе, причине написания произведения «Кисаси Рабгузи» и истории его начала.*

Ключевые слова: *Насирудин Бурхануддин Рабгузи, Кисаси Рабгузи, Священный Коран, история повествования, истории пророков и праведников, хвала, нат, сура, аят.*

Ushbu maqolada Qur'oni Karimda payg'ambarlar tarixining bayoni hamda "Qisasi rabg'uziy" asarining yozilishi sababi va tarixi, shuningdek ushbu asarning o'ziga xosligi va asarning boshlanish qismi haqida so'z boradi.

Islom dininig muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni Karimning vahiy orqali nozil bo'lishi bilan musulmonlar juda ham ko'plab o'tmishda yashagan payg'ambarlar va ularning ummatlari haqidagi ishonchli qissalardan xabardor bo'lishdi. Qur'ondagi ushbu qissalarda Muhammad sollollohu alayhi vasallamdan avvalgi kelgan payg'ambarlar va solih kishilar, ularning ummatlarini tavhidga chaqirishlari va bu yo'lda chekkan mashaqqatlari, qavmlarning aksarlari payg'ambarlariga qilgan sarkashliklari hamda ularga jazo sifatida yuborilgan balo – ofatlar, ba'zi qavmlar esa hidoyat topib, payg'ambarlariga ergashganliklari haqida so'z yuritiladi. Qur'on nozil bo'lgandan to bugungi kungacha ushbu muqaddas kitobda keltirilgan qissalar hamda Rosululloh SAV hadislari asosida payg'ambarlar tarixi haqida juda ko'plab asarlar yozildi. Xatto ushbu qissalar musulmon Sharqi badiy adabiyotida ko'plab asarlar yaratilishiga zamin hozirladi. Bu turkum asarlar dastlab arab tilida yozilgan bo'lsa, keyinchalik fors tilida ham bunday qissalar paydo bo'la boshladi. Turkiy tilda yozilgan payg'ambarlar qissasiga asoslangan eng mashhur asar Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziyning "Qisasi rabg'uziy" asaridir. Rabg'uziy taxallusi bilan ijod etgan Nosiruddin Burhonuddin o'g'li (XIII asr oxiri XIV asr boshlari) Xorazmda Raboto'g'uz degan joyda qozilik qilgan. U sharq xalqlari og'zaki ijodini, rivoyatlarni, avliyo

– anbiyolar to‘g‘risidagi qissalarni chuqur o‘rgangan. O‘zi ham ko‘pgina ibratli hikoyatlar, qissalar yozgan.

Turkiy xalqlar adabiyoti tarixida birinchilardan bo‘lib nasrda rivoyatlardan, hikoyatlardan qissa yaratishni boshlab bergan. Bizgacha faqat “Qisasi rabg‘uziy” asarigina yetib kelgan. Asar islom dinini qabul qilgan nufuzli mo‘g‘ul beklaridan Nosiruddin To‘qbug‘aning iltimosiga ko‘ra hijriy 709 (milodiy 1309-1310) yilda yozilgan. “Ammo ba‘d, bu kitobni tuzgan, to‘at yo‘linda tizgan, ma‘siyat yobonin kezgan, oz ozuqlug‘, ko‘p yozuqlug‘ Rabot o‘g‘uzining qozisi Burhon o‘g‘li Nosiruddin urug‘i, satarallohu alayhi as-salomata va rahima shiyabahu⁸ andog‘ aytur.. Toj ul – umaro va muhibbul – ulamo beklar urug‘i, yigitlar arig‘i⁹, ulug‘ otlig‘, qutlug‘ zotlig‘, ezgu xulqlig‘, islom yorig‘liq, mo‘g‘ul sanilig‘, musulmon dinlig‘, odamiylar inonchi, mo‘minlar quvonchi, himmati adiz¹⁰, aqli tegiz begimiz Nosiruddin To‘qbug‘a sabbatallohu alo dinil islom va salomuhu¹¹.”

Bu yerda shu narsa ko‘zga tashlanadiki, To‘qbug‘a bu vazifani topshirishda Rabg‘uziyning bilimi, yozuvchilik mahorati, hayot tajribalari yetarli ekaniga ishonchi bo‘lgan. Qolaversa, muntazam izchillikda bayon qilingan tarixiy va afsonaviy voqealar, asarga kiritilgan turkiy she‘rlar, arab tilidan qilingan tarjimalar Rabg‘uziy iste‘dodini isbotlaydi.

Asarning yozilish sababi to‘g‘risida muqaddimada quyidagi qisqacha ma‘lumot berilgan: “...payg‘ambarlar qissalariga g‘oyat rag‘batim bor. Tekma yerda tekma kim ersada bo‘linur ba‘zisi nomustaqim. Bir anchasi muqarrar va bir anchasi mubattar bor. Bir ozining so‘zlari kesuk bor, bir ozining maqsudlari o‘ksuk. Emdi saning zimmangdin chiqg‘an, qalamungdin oqg‘an, kitobatma saning, iboratma saning bo‘lub “Qisas ul – anbiyo” bo‘lsa, o‘qimoqg‘a keraklik, o‘granmoqqa yarog‘lig‘ bo‘lg‘ay erdi, teb iltimos yanglig‘ ishorat bo‘ldi ersa nechama o‘zumni ul ishga loyiq, ul amalga muvofiq ermasin teb, bu og‘ir ishga o‘g‘radimiz¹². Izi azza va jalladan tamom bo‘lg‘ug‘a tavfiq¹³ tilab kitob boshladimiz”.

Muallif asardan ko‘zda tutilgan maqsadni ta‘riflab shunday deydi: “Munda maqsad payg‘ambarlar qissasi erdi. Va lekin Odamdin burunroq yaratilg‘an bor uchun andin boshlasamiz foydasi ortuqroq bo‘lg‘ay, deb tartib uza yaratilg‘onlardan og‘oz qildimiz¹⁴. Ertakliga o‘ngay, istakliga tebray bo‘lsin teb “Qisasi ar – rabg‘uziy” ot berdimiz.”

Nosiruddin Rabg‘uziy asarni deyarli bir yillik tinimsiz mehnatdan so‘ng hijriy 710 yilning xut (melodiy 1310 yil, 21 fevral – 21 mart) oyida nihoyasiga etkazadi.

Mazkur vazifani ulkan salohiyat, katta mahorat bilan uddalagan adibning asari yaratilgandan to bugungi kungacha sevilib o‘qib kelinmoqda.

Rabg‘uziyning bu ijod mahsuli mazkur mavzu an‘anasidagi o‘ziga xos bosqich bo‘ldi. Birinchidan, adib o‘zigacha yaratilgan payg‘ambarlar haqidagi qissalarni puxta o‘rgandi, umumlashtirdi, rivojlantirdi. Ikkinchidan, salaflari yo‘l qo‘ygan kamchiliklarni tuzatdi. Uchinchidan, oldinlari nabiyalar haqidagi qissalar arab va fors tillarida yozilgan bo‘lsa, Rabg‘uziy esa birinchilardan bo‘lib uni turkiy tilda yozishga jazm qildi.

⁸ Alloh Taolo uning kamchiliklarini berkitsin va unga rahm qilsin.

⁹ Arig‘ – sof, toza, pikiza, beg‘ubor.

¹⁰ Adiz – baland, yuqori, yuksak.

¹¹ Alloh Taolo uni dini islomda sobit qilsin va unga salomlar bo‘lsin.

¹² O‘g‘radimiz – kirishdik, qo‘l urdik.

¹³ Tavfiq – yordam, ko‘mak, madad

¹⁴ Og‘oz qildimiz – boshladik, kirishdik.

Unda XIII asr. oxiri XIV asr boshlaridagi turkiy adabiyotning bir qator o'ziga xos xususiyatlari juda yorqin namoyon bo'lgan. O'zbek nasrida ilk marotaba dialoglar Rabg'uziy tomonidan keng tarzda qo'llangan. Ana shu dialoglar vositasida asosiy g'oyaviy maqsad yorqin va ta'sirchan ifodalangan va poetik ifodalar ham aynan dialoglar shaklida kelganda o'quvchiga tushunilishi oson bo'lgan.

“Qisasi rabg'uziy” – turkiy nasrning eng qadimiy namunalaridan biridir. Payg'ambarlar haqidagi qissalar Rabg'uziyning olam va odam haqidagi qarashlarini badiiy jihatdan ifodalash uchun vosita bo'lgan. Qissalar asosini tarixiy – ilohiy voqealar tashkil etadi. Ular o'z ildizlari bilan Qur'on va hadislarga, insoniyatning yaratilishi va rivojlanish tarixiga, xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Ammo bularning ko'pchiligi, birinchi navbatda, Rabg'uziy badiiy tafakkuri yordamida qayta idrok etiladi, badiiy talqinini topadi.

Shuningdek, Qur'oni Karimdagi ba'zi lavhalar, islomga oid boshqa kitoblardan va Abu Is'hoq Nishopuriyning “Qissas ul – anbiyo” sidan ayrim faktlar asarga asos qilib olingan. Asar an'anaviy hamd ya'ni Allohga hamdu sano va na't ya'ni payg'ambar sha'niga maqtov bilan boshlanadi.

Muallif asarning boshlanishi ya'ni hamd va na't qismida Qur'oni Karimning juda ko'plab oyatlardan foydalangan. Quyida muallif murojaat qilgan oyatlarining ba'zilari bilan tanishamiz. Hamd qismidagi ilk oyat “laqod karromna bani Aadama¹⁵” – “Darhaqiqat, Biz Odam bolalarini aziz – mukarram qildik” oyati bilan boshlanadi. “Alayhinna darajatun¹⁶” – “(erkaklar uchun) ayollar ustida bir daraja bor”; “Va anna haza siroti mustaqiyman faattabi'uhu¹⁷” – “Albatta, mana shu Mening To'g'ri yo'limdir. Bas, shu yo'lga ergashinglar”. Ushbu 3 oyatdan keyin asarning na't qismi boshlanadi.

“Laqod jaakum rosulun min anfusikum¹⁸” – “Axir sizlarga o'zlaringizdan bo'lgan bir payg'ambar keldiku”; “Kuntum xoyro ummatin uxrijat linnaas¹⁹” – “(Ey ummati Muhammad), Odamlar uchun chiqarilgan millatlarning eng yaxshisi bo'ldingiz”; “Sovvarokum faaxsana suvarokum²⁰” – “Sizlarga surat – shakl berib, suratlaringizni go'zal qilgan”. Ushbu oyatdan keyin Allohga hamdu sano aytiladi: “al hamdu lillahi a'la ma avla fa ni'ma ar robbu va ni'ma al mavla” ya'ni “bergan narsalari uchun Allohga hamd bo'lsin, u qandoq ham yaxshi parvardigor va qandoq ham yaxshi do'st”. So'ng yana Qur'on o'ylari davom etadi. “Laa'mruku²¹” – “(Ey Muhammad) hayotingizga qasamki”.

Muallif payg'ambarga maqtov aytishda hamda uning fazilatlarini sanashda Qur'on o'ylarida kelgan maqtovlardan unumli foydalanib, asarning jozibadorligini yanada oshiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytmoq kerakki, Rabg'uziyning “Qisasi rabg'uziy” asarini o'qib tadqiq etish ulug' ajdodlarimizning merosini o'rganibgina bo'lib qolmasdan kelajak avlodni komillikka, insoniylikga, vatanparvarlikga yetaklashga yo'l ochadi. Hozirgi jamiyat vakillarini va kelajak avlodni komillikka etaklash uchun Rabg'uziy asaridagi qissalarni ilmiy tadqiq etib, ular ongiga singdirishimiz lozim. Ushbu qissalar o'quvchini zamon bilan hamohang shakllanishiga xizmat qiladi.

¹⁵ Isro surasi 70-oyat.

¹⁶ Baqara surasi 228-oyat.

¹⁷ An'om surasi 153-oyat.

¹⁸ Tavba surasi 128-oyat

¹⁹ Oli Imron surasi 110-oyat

²⁰ G'ofir surasi 64-oyat

²¹ Hijr surasi 72-oyat

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. "Yozuvchi", 1-kitob, T., 1990.
2. Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. "Yozuvchi", 2-kitob, T., 1991.
3. O'zbek adabiyoti tarixi., T., Habib Abdunazar 1977y.
4. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. Alouddin Mansur. "Sharq", 1992-y.